



## AGATA KRISTINING "TUN ZULMATI" ROMANI BADIY TAHLILI VA ASARDA IFODALANGAN RAMZLAR TASVIRI

**Oqmirzayeva Umida Normurod qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti Urgut filiali talabasi

E-mail: oqmirzayevaumida@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15708906>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 21-Iyun 2025 yil

### KEY WORDS

*Maykl Rojers, Elli Guteman, Greta  
Andersan, pyesa, ramz, ramziy  
obraz*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada detektiv janr qirolichasi Agata  
Kristining "Tun zulmati" romani qahramonlari badiiy  
tahlil qilinadi.*

Inson boshqa mavjudotlardan nafaqat tafakkuri balki, boshqalarga bo'lgan mehr-muruvvati, vijdoni, imoni bilan ham ajralib turadi. Ongini taniy boshlaganidan so'ng hayotning katta sinovlar eshigi ochiladi. Asosiy sinov esa oldida turgan eng to'g'ri yo'lni tanlash va shu yo'ldan yurish bo'ladi. Bu yo'llar ezgulik hamda unga yonma-yon turgan jaholat yo'llaridir. Garchi eng to'g'ri yo'l bizga ko'rsatilgan bo'lishiga qaramay, yonimizda turgan yo'ldan shayton turli xil jilolar bilan biz insonlarni o'z olamiga taklif etadi. Tafakkur va imon libosini kiygan insonlar ezgulik yo'lidan qoqilmay davom etaverishadi. Ular uchun jaholat yo'li berkdir. Ammo nafs deb atalmish kuchga qul bo'lganlar esa barcha yovuzliklarni o'zida mujassam etadi. Bu olamda nurli cho'qqilarga erishish oson tuyuladi.

### Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ingliz yozuvchisi Agata Kristi (1890-1976) dunyo adabiyotining mashhur detektiv yozuvchilaridan biri bo'lib, o'zining murakkab syujet qurilishi, aniq detallar va kutilmagan yakunlari bilan dunyo adabiyotida alohida o'rin egallagan. Dunyodagi eng ko'p o'qiladigan yozuvchilar sirasiga kirib, uning asarlari shu vaqtgacha yuzdan ziyod tilda to'rt milliarddan ko'p nusxada nashr etilgan. Uning kitoblari G'arbda Bibliya kitobi va Shekspir asarlaridan keyin uchinchi o'rinda turadi. Agata Kristi degan nomni o'z vaqtida ko'pchilik eshitmagan. Detektiv ishqibozlari ayol yozuvchi yozgan kitoblarni xarid qilmasligidan cho'chigan Agata Kristi o'ziga erkakcha taxallus o'ylab qo'ygan. Bular "Mart Uest", "Martin Grey", "Vestmakott" degan taxalluslar edi. Lekin yozuvchi o'z ismi (Agata) va birinchi erining familiyasi (Kristi) bilan mashhur bo'ldi. O'zining asl ism-familiyasi esa Agata Meri Klarissa Miller edi.

U 85 ta roman, 20 ta pyesa va ko'plab hikoyalar yozgan. Ayniqsa, uning detektiv romanlari mashhur bo'lib, ular orasida "And Then There Were None" (Unda hech kim qolmadi) romani 100 milliondan ortiq nusxada sotilgan. Shuningdek, uning "The Mousetrap" (Sichqoncha qopqoni) pyesasi dunyoda eng uzoq vaqt davomida sahnalashtirilgan asar hisoblanadi. Agata Kristining asarlari 103 tilga tarjima qilingan. Agata Kristining asarlarida

jinoyat nafaqat dalillar bilan, balki qahramonlarning ichki sezgilari va intuitiv tushunishlari asosida ham ochiladi, ayniqsa, uning belgiyalik detektivi Erkyul Puaro haqidagi hikoyalar shular jumlasidandir.

### **Natija**

Uning asarlarining mashhurligi syujetning qiziqarliligi, kutilmagan yechimlari va personajlarning yorqinligi bilan bog'liq. Shunday asarlaridan biri "Tun zulmati" dir. Asar haqida muallif: "Bu men ilgari yozganlarimdan ancha farq qiladi"-degandi. Asar nashr qilinganidan so'ng, Agata Kristi "Time" jurnalida bergan intervyusida: "Bu jiddiyroq narsa, haqiqiy fojia. Shunday bo'ladiki, ba'zi oilalarda bola yomon yo'ldan yurish uchun tug'ilgandek... Odatda, men kitobga uch yoki to'rt oy vaqt sarflayman, lekin "Tun zulmati" ni olti haftada yozdim". Uni yozish paytida yetmish yoshga to'lganiga qaramay, u suhbatdoshiga, "Maykl ni ya'ni yigirma yoshli yigitning hikoyachisi bo'lish qiyin bo'lmaganligini aytdi. Axir, siz unga o'xshagan odamlarning doimo gaplashayotganini eshitasiz" Tadqiqotchilar "Tun zulmati" ni iliq qabul qilishdi, Jon Neymark esa "Ajoyib detektiv va juda yaxshi roman" deb e'tirof etdi.

Bu roman an'anaviy detektivdan ko'ra ko'proq psixologik triller, sevgi va fojiaga yo'g'rilgan ichki dramadir. Asar o'zining sirli olami, ishonchli ichki monologlari va keskin voqealari bilan o'quvchini larzaga soladi. Asar boshlanishida Agata Kristi shunday yozgan: "Menga lo'lilar hovlisi haqidagi afsonani birinchi marta so'zlab bergan Nora Prichardga bag'ishlanadi".

### **Muhokama**

Asar yigirma ikki yoshli Maykl Rojersning tilidan hikoya qilinadi. Bunday qilishining asosiy sababi asar yanada hayajonli chiqishi uchun edi. U kambag'al yigit bo'lib, boylik va hashamatli hayot orzusida yashaydi. U boylikka osonlikcha erishishni xohlaydigan obraz. Shuning uchun ham u amerikalik merosxo'r Fenella (Elli) Guteman bilan uchrashadi. U o'zini Fenella "Gudman" deb tanishtiradi, chunki uning merosxo'r ekanligini, haqiqatni bilishini istamaydi. Ular juda yaxshi munosabatda bo'lishadi va bu bir qarashda bir-birini sevib qolgandek ko'rinadi. Maykl Lo'lilar qishlog'idagi bir binoga egalik qilish orzusi borligini aytadi. Elli bu fikrni ma'qullaydi va Maykl ha bildirmasdan sotib oladi Elli uning go'zal hamrohi ya'ni xizmatchisi haqida gapiradi, Greta Andersen. Ko'rinishidan, Greta bir necha yillardan beri unga eng yaxshi do'st bo'lib kelgan va juda yaxshi inson deb ta'riflaydi. Maykl va Elli turmush quradi va kelajak to'g'risida shirin orzular qila boshlashadi. Ammo hayot orzu qilgandek bo'lmaydi. Tez orada voqealar qorong'u tus olib, Elli halokatga uchraydi. Voqealar rivojidan ma'lum bo'lishicha, Maykl uning o'limi ortida turgan asosiy aybdordir. Ammo voqealar rivojida shu ayon bo'ladiki, Greta va Maykl til biriktirib, Ellining boyligiga ega chiqishni maqsad qilgan. Shuning uchun ham qotilliklarni sodir etishgan. Asar voqealari oxiriga kelib oydinlashadi. Qotilliklar ham asar oxirida kelib kim tomon sodir etilganligi ayon bo'ladi.

Asarda asosiy g'oya muvaffaqiyatga erishish uchun yashirin jinoyat, Mayklning boshidan kechirganlari orqali muallif inson ruhining zaifligi, ochko'zliklarning halokatli oqibatlarini tasvirlaydi. Bu roman orqali Kristi inson ruhiyati, yolg'onning qudrati va muhabbat ortidagi fitnalarni chuqur tahlil qiladi. Asar klassik detektiv romanlarning an'anaviy chegaralarini buzgan, o'quvchini doimiy shubhada soluvchi va hayajon bilan so'nggi sahifasigacha o'qishga majburlovchi asardir. Roman faqat jinoyat emas, balki sevgi va xiyonatni ham o'z ichiga oladi. Elli va Mayklning munosabatlari ilk qarashda ideal ko'rinsa-da, ular orasidagi ishonchsizlik, soddalik fojiaiy yakunga olib keladi. Bu elementlar roman strukturasiida tragediyani eslatadi.

Shuningdek, asar, umrning to'xtovsiz, maqsadsiz oqib ketayotgan tunlarini anglatadi.

G'arbda ramz masalasini nisbatan erta tizimli o'rgangan nemis olimi Hegeldir. U falsafa va san'at nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda insoniyatga xos san'atni ramziy, klassik hamda romantik kabi uchta turkumga ajratdi. Ular ichidan ramzlar turkumiga xos san'atni insoniyatning eng dastlabki san'ati deya baholadi. Shu sababdan ham Hegel ramzlarni "san'atdan oldingi san'at" (verkunst), "san'atning tayyorgarlik bosqichi" deb ta'kidlaydi. Chunki insoniyat qadimgi davrlandanoq atrofidagi narsalarga qarab, ularni ramziylashtirgan. Hegel ramz faoliyatining insoniyat ruhiyatini mashq qildirish bosqichi ekanligiga urg'u berib, unga epistemologik (bilish nazariyasi) nuqtayi nazardan yondashadi. Shu sabab ham u ramzni tafakkur tarzi, bilishning bir ko'rinishi sifatida ta'kidlaydi.

Ochilov Ozodjon o'zining "VII - X asrlar tang davri she'riyatida ramzlar semantikasi" dissertatsiyasida ramziy ma'nolar haqidagi nazariy qarashlar, ularning yuzaga kelish omillari, badiiy adabiyotga kirib kelishi, Tang davri she'riyatida ramzlar semiotikasi haqida to'xtalib, ramzlarni g'oyaviy-badiiy va falsafiy qarashlar kesimida tahlil qilgan. Shuningdek, ramziy obrazlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan talqin qilish masalasiga ham e'tibor qaratgan, dissertatsiyaning III bobi "Tang she'riyatida "Oy" va "may" ramzlari semantikasi" deb nomlanib, unda "Oy va may" ramziy obrazining ma'no talqinlari, Li Bai she'rlaridagi ramziy obrazlar semantikasi ham alohida tahlil etilgan. U ramzlarning inson xotirasi bilan bog'liqligi, boy madaniy ma'lumotlarni saqlab kelishi, ramziy so'zlar anglatuvchi ma'nolar, asosan, xalqning his-tuyg'ulari, hayotiy qarashlari, o'y-fikrlari, estetik ko'nikmalarining mujassamlashuvi ekanligini qayd etgan.

Jumatova Nasiba "Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar" dissertatsiyasida rang bilan bog'liq ramziy obrazlar tarixiga nazar tashlab, o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq ramziy obrazlarni yoritgan. U ramzni voqelikni jonli mushohada qilish orqali vujudga kelgan tasavvurdan iboratligi, ramz voqelikning in'ikosiligi, ramz - she'rdagi badiiy g'oyani yashiruvchi, sir pardasiga o'raydigan vosita, rang esa ana shu yashirin g'oyani chuqurlashtiruvchi va yo'naltiruvchi ramzligini misollar orqali tahlil qilib bergan.

Jumladan, "Tun zulmati" romani davomida "Lo'lilar qishlog'i" deb nomlangan yer maydoni — lo'lilar la'nati, fojiviy joy — asosiy ramz sifatida namoyon bo'ladi. U yer insonga ozodlik va halokatni bir vaqtning o'zida olib keladi. Asarda timsol va ramzlar keng qo'llanilgan. Masalan, "Lo'lilar qishlog'i"da Santonix, Maykl va Elli uchun qurgan uyi bu nafaqat go'zal uy qurilgan joy, balki la'natlangan yer ramzi, inson orzularining qulash joyi sifatida talqin qilinadi. Chunki u yerda bir qancha insonlar vafot etdi. Tun zulmati iborasi esa doimiy xavotir, ruhiy zulmat va ruhiy halokat holatini anglatadi. Asar qahramonlari ham asar so'ngida o'sha zulmatga singib ketadi. Santonix iste'dodli, o'z ishiga juda sadoqatli va san'atni chuqur his qiladigan me'mor. U romandagi bosh qahramon Maykl Rojersning do'sti va ayni vaqtda uning orzularidagi uyni loyhasini ishlab chiqadi. U Odamlarning ichki dunyosini tushunadigan, ularning ehtiyoj va istaklarini sezadigan inson. Bundan tashqari, xavfni oldindan sezadigan ramziy obrazdir.

Asar nomi William Blakening she'ridan olinadi. Elli asarda doim kuylaydigan kuy, bevosita asarning voqealaridan kelib chiqib kuylanadi.

Har doim bo'lg'in ogoh

Quvonch ham g'am-hamroh.

Gar buni tutsang yodda,

Qoqilmaysan hayotda.  
Zulmatni va yoki tong,  
Nurga talpinar inson.  
Nurga talpinar inson,  
Atrof esa zimiston.

Kim yetar nurli baxtga,  
Kim qulaydi zulmatga.

Roman so'ngida o'quvchi shokka tushadi. Boshidan oxirigacha ishonib kelgan hikoyachi — asl jinoyatchi bo'lib chiqadi. Bu o'z davri uchun juda noan'anaviy usul bo'lgan.

#### **Xulosa**

Bu asar undagi noaniqlik, ruhiy murakkablik, orzu va zulmat orasidagi ziddiyat orqali o'quvchini hayratda qoldiradi. Kristi bu roman orqali ko'rsatadiki, eng dahshatli jinoyatlar detektiv binosida emas, inson qalbining tubida yashirinadi. Tildagi ramz va uni ifodalovchi so'zlar, birikmalar madaniyat ifodachisi hisoblanadi. Ular ma'lum bir voqelikni va holatni yorqinroq ifodalaydi. Ular orqali milliy o'zlik, borliqqa munosabat namoyon bo'ladi. Ramz orqali anchayin keng miqyosli voqelarni yaxlitlashirish mumkinligi o'zining isbotini topyapti. Shu bilan birgalikda unda bo'rttirish, yorqinroq aks ettirish mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Christie, Agatha. Endless Night. London: Collins Crime Club, 1967.
2. Christie, Agatha. An Autobiography. London: HarperCollins, 1977.
3. <https://www.agathachristie.com/stories/endless-night>.
4. <https://www.readerslane.com/agatha-christie/endless-night>.
5. <https://www.theguardian.com/books/booksblog/2018/nov/13/endless-night-agatha-christie-1967-novel>.
6. Ochilov O. VII-X asrlar tang davri she'riyatida ramzlar semantikasi: Toshkent, 2018.
7. Jumayeva S. O'zbek mumtoz she'riyatida raqam ramzlari va ularning ma'no talqini (XII-XV asrlar)– Toshkent, 2006.